

PESTITSIDNI BIR MAROTABA TA'SIRIDA JIGARNING GISTOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Karimov N.B.

Islomov Sh.E.

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22743906>

Qabul qilindi: 6-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 13-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 14-sentabr 2026-yil

Dolzarbli.

Qishloq xo'jaligida pestitsidlarning keng qo'llanilishi ularning insonlar va sutemizuvchilar organizmiga tushish ehtimolini ko'rsatadi.

Tadqiqot maqsadi: Pestitsid Ento Defoln bir marta ta'sir qilgandan so'ng, kalamush jigarning xarakterli gistokimyoviy xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot materiali va usullar: Tajriba ikki guruh laboratoriya kalamushlarida o'tkazildi: nazorat guruhi (6 kalamush) va pestitsid Ento Defol 1/10 LD₅₀ dozasida ta'sir qilgan guruh (6 kalamush). Qo'llanilgan tadqiqot usullari gistologik preparatlarni van Gizon usuli va toluidin ko'ki yordamida bo'yashni o'z ichiga oldi.

Tadqiqot natijalari: Van-Gizon bo'yog'i bilan buyalganda - jigar to'qimasida kollagen tolalari odatda portal traktlar atrofida joylashgan bo'lib, ayrim joylarda notekis va fragmentar xarakterga ega. Sentrolobulyar maydonda gepatositlar sitoplazmasida donadorlik va vakuolyar distrofiya belgilari namoyon bo'lgan. Nekroz o'choqlari atrofida parenxima strukturasi parchalangan, hujayra konturlari noaniqlangan holatda. Sinusoidlar kengaygan va qon bilan to'lgan, Kupfer hujayralari soni ko'payganligi aniqlanadi. O'rta lobulyar zonada gepatositlar sitoplazmasining intensivligi pasaygan, hujayralarda regenerasiya va destruktiv jarayonlar aralash holda namoyon bo'lgan. Periportal maydonda kollagen tolalarining zichligi ortgan va reaktiv fibroz belgilari, shish hamda kam darajadagi yallig'lanish infiltrasiyasi kuzatiladi. Qon tomir devorlarida endotelial disfunktsiya belgilari va ayrim joylarda plazmorragiya elementlari kuzatiladi.

Toluidin ko'ki bo'yog'i bilan buyalganda - sentrolobulyar maydonda gepatositlar sitoplazmaning granulyar va vakuolyar o'zgarishlari, bazofilikning notekis taqsimlanishi kuzatiladi. Yadrolarda xromatin kondensasiyasi, piknoz va karioreksis holatlari ko'plab uchraydi, ayrim stromal elementlarda metaxromaziya belgilari qayd etiladi. Sinusoid bo'shliqlarda to'la qonlik va staz belgilari, Kupfer hujayralarining miqdori ortgan holatda. O'rta lobulyar zonada gepatositlar sitoplazmasida bazofilik pasaygan, ayrim hujayralarda vakuolizasiya va struktur buzilishi belgilari namoyon bo'lgan. Bu hududda ham nekrobilotik o'zgarishlar va regenerativ jarayonlar parallel kechayotgani kuzatiladi. Periportal maydonda o'zgarishlar nisbatan kamroq bo'lsada, interstisial shish va yengil infiltrasiya belgilari qayd etiladi. Portal trakt elementlari atrofida metaxromatik reaksiyalar kuchaygan.

Xulosa. Pestitsid Ento Defol 1/10 LD₅₀ dozasida bir marta ta'sirida kalamushlarda jigarning og'ir toksik zararlanishiga olib keladi, bu distrofik, nekrobilotik, qon tomir va yallig'lanish o'zgarishlarining kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi, bu jigar bo'laklarining sentrilobulyar mintaqalarida eng aniq namoyon bo'ladi. Aniqlangan morfologik buzilishlar o'rganilayotgan pestitsidning yuqori gepatotoksik faolligini va kompensator, hamda regenerativ jarayonlarning faollashishi bilan toksik gepatopatiyaning rivojlanishini ko'rsatadi.